



O'ZBEKISTONDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASI VA ISTIQBOLLARI

Sodiqova Gavhar Xayrulla qizi

Toshkent davlat agrar universiteti huquq va turizm fakulteti

“turizm va mehmondo'stlik” yo'nalishi 1-bosqich

magistratura talabasi

g-mail manzil: gavharsodiqova2001@gmail.com

tel: +998 97 001 25 60

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15636635>

Annotatsiya: Ushbu maqola “O'zbekistonda turizmni rivojlantirish strategiyasi va istiqbollari” mavzusini o'z ichiga oladi. Turizm global iqtisodiyotda muhim soha bo'lib, iqtisodiy rivojlanish, madaniy almashinuv va mintaqaviy barqarorlikka katta hissa qo'shadi. Ushbu ishda O'zbekistonda turizm sohasining hozirgi holati, uning mamlakat barqaror rivojlanishi uchun strategik ahamiyati yoritilgan. Boy tarixiy va madaniy merosga ega bo'lgan O'zbekiston jahon turizm xaritasida muhim yo'nalishlardan biriga aylanish uchun ulkan salohiyatga ega. Maqolada infratuzilmani modernizatsiya qilish, turistik mahsulotlarni diversifikatsiya qilish va xizmatlar sifatini oshirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Mahalliy va xalqaro sayyohlarni jalb etish uchun innovatsiyalarni joriy etish, davlat va xususiy sektor hamkorligi hamda barqaror turizm amaliyotlari muhim omillar sifatida tahlil qilingan. Shu bilan birga, ekologik muhitni muhofaza qilish, madaniy merosni asrab-avaylash va mas'uliyatli turizm rivoji masalalari ko'rib chiqilgan. Mazkur ish O'zbekistonni Markaziy Osiyodagi yetakchi turizm markaziga aylantirish uchun zarur bo'lgan keng qamrovli strategiyalar haqida ma'lumot berib, iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish hamda mamlakatning xalqaro nufuzini yanada mustahkamlashga qaratilgan tavsiyalarni o'z ichiga oladi.

Annotation: This article covers the topic “Development Strategy and Prospects of Tourism in Uzbekistan.” Tourism is a vital sector in the global economy, contributing significantly to economic development, cultural exchange, and regional stability. This study highlights the current state of the tourism sector in Uzbekistan and its strategic importance for the country's sustainable development. With its rich historical and cultural heritage, Uzbekistan possesses immense potential to become one of the key destinations on the world tourism map. The article places special emphasis on modernizing infrastructure, diversifying tourism products, and improving service quality. It analyzes the importance of introducing innovations, fostering public-private partnerships, and implementing sustainable tourism practices to attract both



domestic and international tourists. Moreover, it addresses the issues of preserving the ecological environment, safeguarding cultural heritage, and promoting responsible tourism. This work provides comprehensive strategies necessary to transform Uzbekistan into a leading tourism hub in Central Asia and includes recommendations aimed at stimulating economic growth and enhancing the country's international image.

Kalit so'zlar: turizm, turizm infratuzilmasi, xalqaro hamkorlik, madaniy almashinuv, turizm ovuli, Turizm qishlog'i, global iqtisodiyot, turistik imkoniyatlar, infratuzilmani modernizatsiya qilish, turistlar xavfsizligi, ziyorat turizmi, ekologik turizm, gastronomik turizm, Xalqaro standartlar, transport logistika tizimi, xorijiy investitsiyalar, malakali kadrlar tayyorlash, madaniy meros, siyosiy barqarorlik.

Keywords: Tourism, tourism infrastructure, international cooperation, cultural exchange, tourism village, tourist village, global economy, tourism potential, modernization of infrastructure, tourist safety, pilgrimage tourism, ecotourism, gastronomic tourism, international standards, transport and logistics system, foreign investments, training of qualified personnel, cultural heritage, political stability.

Turizm sohasi bugungi kunda dunyo bo'ylab jadal rivojlanayotgan sohalardan biri bo'lib mamlakatlar bu sohaga alohida e'tibor berishmoqda. Turizmni barqaror rivojlantirish uchun puxta Turizm strategiyasini ishlab chiqish lozim. Bunda strategik yondashuv turizm sohasini iqtisodiy rivojlanishida ahamiyatlidir. Puxta va uzoq muddatli Turizm strategiyasini ishlab chiqish asosida mahalliy va xorijiy investitsiyalar jalb qilinadi, yangi ish o'rinlari yaratiladi, hududlarda kichik va o'rta biznes subyektlari faoliyati rag'batlantiriladi. Bu esa mamlakatning iqtisodiy o'sishiga ijobiy ta'sir etadi. Turizm strategiyasidan asosiy maqsadlardan yana bir bu O'zbekiston turizm brendini va imijini dunyoga tanitish reklama va targ'ibot ishlari orqali yurtimizning o'ziga xos madaniyati, tabiiy go'zalliklarini, tarixiy obidalarini keng targ'ib qilishdir. Bu esa o'z o'zidan sayyohlarning yurtimizga bo'lgan qiziqishini ortishiga sabab bo'lib turizm salohiyatini oshirishga xizmat qiladi. Turizm infratuzilmasini yaxshilash bugungi kunda dolzarb masala bo'lib kelmoqda. Yaxshi rejalashtirilgan turizm infratuzilmasi sayyohlar va mahalliy aholi uchun qulay sharoit yaratadi. Bu jarayonda transport, mehmonxona, ovqatlanish, sog'liqni saqlash, axborot xizmatlari kabi turizm uchun zarur bo'lgan infratuzilma tarmoqlari sezilarli darajada yaxshilandi. Yana bir muhim jihati shuki, strategik rejalashtirish turizmida ekologik, madaniy va ijtimoiy



barqarorlikni ta'minlaydi. Masalan, yurtimizga tashrif buyurgan turistlar uchun ekologik turizm turlarini taklif qilish, hamda ekologik toza turizm turlarini rivojlantirish orqali tabiat resurslari saqlanadi. Bundan tashqari tarixiy yodgorliklarga zarar yetkazilmasdan foydalanish imkoniyati yaratiladi.

O'zbekiston Respublikasi statistika qo'mitasi va Turizm qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, so'nggi yillarda turizm sohasining YAIM dagi ulushi yildan yilga o'sib bormoqd. 2023-yil statistik ma'lumotlariga ko'ra O'zbekiston turizm sohasining YAIM dagi ulushi taxminan 5% atrofida bo'lgan. Bu ko'rsatkich 2016-yilda deyarli ikki baravarga oshib, atigi 2,5% ni tashkil etgan edi. 2023-yilda O'zbekistonga 6,6 milliondan ortiq xorijiy sayyohlar tashrif buyurgani qayd etilgan. Ularga ko'plab xizmatlar ko'rsatilgan. Jumladan, mehmonxonalar, transport, ovqatlanish va boshqa xizmatlar ko'rsatilib, O'zbekiston iqtisodiyotiga chet el valyutasini olib kirib, katta foyda keltirgan. Kelgusida YAIM hajmini oshirish maqsadida ichki va tashqi turizmni rivojlantirish, infratuzilmani yaxshilash va sarmoyalarni jalb qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Kelgusida kutilayotgan ma'lumotlarga ko'ra O'zbekiston hukumati 2030-yilgacha turizmning YAIM dagi ulushini 10% gacha yetkazishni rejalashtirmoqda.

Dunyo miqyosida muvaffaqiyatli deya topilgan turizm strategiyalari ancha yillardan beri o'z samarasini berib kelmoqda. Ushbu strategiyalar faqatgina tashrif buyuruvchilar sonini oshirish bilan cheklanmay, balki davlat imidjini shakllantirish, iqtisodiy ko'rsatkichlarni yanada yaxshilash va aholi farovonligini oshirishga xizmat qiladi. Har bir mamlakat o'zining turizm salohiyatiga asoslanib, tabiiy iqlimi, geografik joylashuvi va rivojlanish imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda noyob strategiyalarni ishlab chiqqan. Misol uchun, Italiyaning madaniy meros asosida ishlab chiqilgan strategiyasida o'zining boy tarixiy va madaniy merosiga tayangan holda UNESCO ro'yxatiga kiritilgan obyektlar soni bo'yicha dunyoda yetakchi o'rinda turadi. Italiya mamlakatining har bir shahri o'zining go'zalligi va arxitekturasidagi nodir bezaklari bilan boshqa davlatlardan ajralib turadi. Italiya hukumati ushbu obyektlarni uzoq muddatga saqlanib qolishi uchun xalqaro grantlar va texnik yordam, har bir obyekt uchun individual boshqaruv rejasi (management plan) hamda "UNESCO monitoring" tizimi orqali holatni muntazam nazorat qiladi.

Muvaffaqiyatli turizm strategiyalarini yo'lga qo'ygan davlatlardan yana bir bu Birlashgan Arab Amirliklarining Dubay shahridir. Ushbu mamlakat yiliga taxminan 16-18 million sayyoh qabul qiladi. Bu mamlakatda safari turizmi mashhurdir. Hukumat tomonidan daromadli sayyohlarni jalb qilish, shaharning xalqaro imidjini mustahkamlash va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash




maqsadida "Luksus turizm" konsepsiyasi ishlab chiqilgan. Dubayning diqqatga sazovor binolarini misol qilsa, bunda dunyodagi eng baland bino deya topilgan "Burj Khalifa" palma daraxti shaklida qurilgan sun'iy kurort orol, yirik savdo markazi va ko'ngil ochar hamda boshqa shu kabi loyihalar shaharning turistik salohiyatini oshirgan. Bu mamlakatda global brending va marketing strategiyalari ham keng joriy qilingan. Misol uchun, "Visit Dubai" kompaniyasi orqali shahar ijtimoiy tarmoqlar, xalqaro ommaviy axborot vositalari va mashhur san'at ixlosmandlari ishtirokida keng reklama qilingan. Bugungi kunda Dubay modeli barqaror va innovatsion turizm strategiyasining eng samarali namunasi bo'lib, mamlakat har yili turizm sohasidan 10 milliard AQSH dollaridan ortiq daromad olmoqda.

Fransiyaning "Madaniy va gastronomik turizm" strategiyasi boshqa mamlakatlar turizm strategik yondashuvidan ajralib turadi. Bu strategiyadan ko'zlangan maqsad turizmni madaniyat, tarix va gastronomiya bilan uyg'unlashtirilgan holda iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni oshirishdir. Fransiyaning o'ziga xos arxitekturasini va san'at merosi mamlakatga tashrif buyurgan sayyohlar tomonidan katta qiziqish bildirilmoqda. Mamlakatda turistik infratuzilma yaxshi rivojlangan bo'lib, Parijdagi Versal saroyi, Luvr muzeyi, Avignon kabi tarixiy diqqatga sazovor joylar turistik markazga aylangan. Fransiya gastronomiya sohasida ham mashhur hisoblanib, fransuz oshxonasi UNESCO tomonidan munosib e'tirof etilib, madaniy meros sifatida tan olingan. Mamlakatda har yili turli xil madaniy festivallar, san'at ko'rgazmalari va gastronomik tadbirlar (masalan, "Gastronomi haftaliklari" yoki "Vin festivals") o'tqaziladi. Fransiya turistik diqqatga sazovor joylar nafaqat katta shaharlarida rivojlangan balki kichik shaharlar va qishloqlarda ham rivojlangan. Turistlar asosan Burgundiya yoki provans mintaqalarida, ekologik turizmni va miliy taomlarni sinab ko'rishni xohlashadi.

Xulosa va takliflar

Turizm ko'plab mamlakatlar iqtisodiyotida muhim sektor bo'lib, iqtisodiy o'sish, madaniy almashinuv va barqarorlikni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. O'zbekistonda turizmning iqtisodiy rivojlanishiga, mamlakatning xalqaro maydondagi obro'sini oshirishga va uning boy madaniy merosini saqlashga katta salohiyati bor. Mamlakatning turizm strategiyasi iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash, ijtimoiy sharoitlarni yaxshilash va madaniy merosni himoya qilishga qaratilgan. Asosiy tashabbuslar infratuzilmani yangilash, yangi turizm yo'nalishlarini yaratish va mahalliy hamda xorijiy sayyohlar uchun qulay sharoitlar yaratishni o'z ichiga oladi. O'zbekistonning



tarixiy obidalari, madaniy boyliklari va tabiiy manzaralari xalqaro turizmni rivojlantirishda katta imkoniyatlar taqdim etadi. An'anaviy turizmni rivojlantirish bilan birga, qishloq, gastronomik, ekoturizm va madaniy turizmni rivojlantirish sektorni diversifikatsiya qilish va kengaytirish uchun juda muhimdir. Hukumat xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, soliq imtiyozlarini taqdim etish va mahalliy aholini turizm faoliyatiga jalb qilish orqali o'sishni rag'batlantirishga intilmoqda. Turizm strategiyasi shuningdek, atrof-muhitni himoya qilish va O'zbekistonning madaniy merosini kelajak avlodlar uchun saqlashga yo'naltirilgan barqaror amaliyotlarni ustuvor qiladi. Bu turizm xizmatlarini sifatini oshirish, malakali mutaxassislarni tayyorlash va mamlakatning global turizm bozoridagi raqobatbardoshligini kuchaytirishni o'z ichiga oladi. Uzoq muddatda, O'zbekistonning turizm strategiyasi mamlakatning iqtisodiy imkoniyatlarini, xalqaro obro'sini oshirish va sayyohlarga betakror tajribalar taqdim etish maqsadiga yo'naltirilgan. Ushbu asosiy maqsadlarga e'tibor qaratish orqali O'zbekiston mintaqadagi yetakchi turizm manzillaridan biriga aylanishga tayyorlanmoqda. Turizm iqtisodiy o'sishga muhim hissa qo'shib, ish o'rinlarini yaratish, xorijiy valyuta tushumlarini ta'minlash va mintaqaviy rivojlanishni qo'llab-quvvatlashga yordam beradi. Turizmning salohiyatidan to'liq foydalanish uchun samarali strategiyalarni amalga oshirish va barqarorlikni ta'minlash juda muhimdir. Ushbu bo'limda turizmni rivojlantirishning turli strategiyalari o'rganilib, barqaror va mas'uliyatli turizm o'sishini qo'llab-quvvatlash uchun davlat, tashkilotlar va jamiyatlar tomonidan qo'llaniladigan asosiy yondashuvlar haqida batafsil ma'lumot berilgan. Atrof-muhitga zarar keltirmaslik, mahalliy madaniyat va merosni saqlash va turistik joylarning uzoq muddatli barqarorligini ta'minlash muhim ekanligi ta'kidlangan. Bundan tashqari, turizmni rivojlantirishda hamkorlik va sheriklikning roli o'rganilib, davlat va xususiy sektor hamkorligi, jamiyatni jalb qilish va xalqaro hamkorlikning ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, raqamli marketing, tajribaviy turizm va ekoturizm kabi yangi tendentsiyalar va innovatsiyalar turizmni rivojlantirish strategiyalariga qo'shayotgan hissasi haqida ham so'z yuritilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi / Sh.M. Mirziyoyev. – Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2021. – 23 b.
2. Farmon (2023). O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risidagi Farmoni.
3. To'xliyev I. (2021). Markaziy Osiyodagi turizmning tarixiy ildizlari. O'zbekiston Milliy axborot agentligi Uza, 27.08.2021





4. Eshtaev A. (2023). O'zbekistonning turizm salohiyati va uni rivojlantirish istiqbollari. Monografiya.

